

## SURXON-SHEROBOD VOHASIDA XO‘JALIK FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ TAQVIMIY URF-ODAT VA MAROSIMLAR

**Xaydarov Odil Ergashevich**

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi

Diniy-ma‘rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutining  
«Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari» kafedrası (PhD) katta o‘qituvchisi

[hajdarovodil188@gmail.com](mailto:hajdarovodil188@gmail.com)

+998 91 582 30 29

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Surxon-Sherobod vohasi aholisining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq taqvimiy urf-odat va marosimlari etnografik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda voha aholisining dehqonchilik, chorvachilik va boshqa an‘anaviy xo‘jalik tarmoqlari bilan bog‘liq mavsumiy marosimlari, ularning shakllanish omillari hamda xalq taqvimi bilan uzviy aloqadorligi yoritilgan. Shuningdek, ekin ekish, hosil yig‘ishtirish, xirmon ko‘tarish, yomg‘ir chaqirish va chorvachilik bilan bog‘liq marosimlarning mahalliy xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot davomida dala-etnografik materiallar, tarixiy-etnografik manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Maqolada xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq taqvimiy urf-odat va marosimlarning voha aholisining madaniy merosini saqlash, avlodlararo an‘analar uzviyligini ta‘minlash hamda etnomadaniy identitetni mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Surxon-Sherobod vohasi, taqvimiy urf-odatlar, marosimlar, etnografiya, dehqonchilik, chorvachilik, xalq taqvimi, etnomadaniyat, an‘anaviy xo‘jalik, madaniy meros.*

### ABSTRACT

*This article provides an ethnographic analysis of the calendar customs and rituals associated with the economic activities of the population of the Surkhan–Sherabad oasis. The study examines seasonal rituals related to agriculture, animal husbandry, and other traditional branches of economic life, as well as the factors influencing their formation and their close connection with the folk calendar. Particular attention is paid to the local characteristics of rituals associated with sowing crops, harvesting, threshing grain, rainmaking ceremonies, and livestock breeding, as well as their role in the social and cultural life of the local population. The research is based on field ethnographic materials, historical-ethnographic sources, and relevant scholarly literature. The article substantiates the significance of calendar customs and rituals related to economic activities in preserving the*

*cultural heritage of the oasis population, ensuring the continuity of traditions between generations, and strengthening ethnocultural identity.*

**Keywords:** *Surkhan–Sherabad Oasis, calendar customs, rituals, ethnography, agriculture, animal husbandry, folk calendar, ethnoculture, traditional economy, cultural heritage.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится этнографический анализ календарных обычаев и обрядов, связанных с хозяйственной деятельностью населения Сурхан-Шерабадского оазиса. В исследовании рассматриваются сезонные обряды, связанные с земледелием, животноводством и другими традиционными отраслями хозяйства, а также факторы их формирования и их тесная связь с народным календарём. Особое внимание уделяется местным особенностям обрядов, связанных с посевом сельскохозяйственных культур, сбором урожая, обмолотом зерна, обрядами вызывания дождя и животноводством, а также их роли в социальной и культурной жизни населения региона. В ходе исследования использованы полевые этнографические материалы, историко-этнографические источники и научная литература. В статье обосновывается значение календарных обычаев и обрядов, связанных с хозяйственной деятельностью, в сохранении культурного наследия населения оазиса, обеспечении преемственности традиций между поколениями и укреплении этнокультурной идентичности.*

**Ключевые слова:** *Сурхан-Шерабадский оазис, календарные обычаи, обряды, этнография, земледелие, животноводство, народный календарь, этнокультура, традиционное хозяйство, культурное наследие.*

### **KIRISH (INTRODUCTION)**

Globalashuv jarayonida insoniyatning vaqt bilan bog‘liq qarashlari bir xillashishiga qaramasdan xalqlarning an‘anaviy yil hisoblari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda geografik muhit bilan sayyoralarning joylashuvi, quyoshning harakati bilan bog‘liq taqvimlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Chunki, har bir mintaqaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda etnik guruhlarining xo‘jalik faoliyati shakllangan. Xo‘jalik faoliyatini yo‘lga qo‘yish esa taqvimlar asosida shakllantirilgan. XX asr o‘rtalariga qadar Surxon-Sherobod vohasining tog‘ aholisi yarim o‘troq turmush kechirganliklari uchun ko‘klamda yaylovga borib, kuzda qishloqqa qaytishar, chorva ham shunga qarab chiqarilar edi.

Ko‘chish oldidan albatta kunni o‘nglab, keyin yo‘lga otlanishgan. Qishloqlarda kunni o‘ng yoki chap ekanligini aniqlaydigan mahalliy munajjimlar bo‘lgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)**

Ushbu maqolani tayyorlashda M.S. Pirmatovanning “O‘zbek taqvim fol’klori”, F.E.Toshboyev, B.N.Mirzayev “O‘zbek xalqi ajdodlari ma’naviy hayotida ilmu nujum”, M.Hakimov “Turkiston xalqlari qo‘llagan taqvimlar”, A.A.Sarimsoqov “O‘zbeklarning kalendar marosimlari” va O.Ahmedovalarning “Tabiat va koinotga oid bilim va urf – odatlarni ilmiy talqinlar asosida o‘rganish masalalari” mavzusidagi tadqiqotlarga tayanildi. Ushbu adabiyotlarga xos xususiyatlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, biz o‘rganayotgan hududning taqvimiy marosimlarining ayrimlariga izoh berilgan. Shu bosidan biz mavzuni yoritishda ko‘proq axborotchilardan olgan ma’lumotlarni kiritishga harakat qildik. Maqolada kuzatish, qiyosiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik, fanlararo yondoshuv metodlaridan foydalanilgan holda Surxon-Sherobod vohasi aholisining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq taqvim va marosimlari tadqiq etildi.

## **NATIJALAR (RESULTS)**

Mazkur Tadqiqot natijasida Surxon-Sherobod vohasi aholisining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq taqvimiy urf-odat va marosimlari xalqning ko‘p asrlik turmush tajribasi, tabiat hodisalari va mavsumiy xo‘jalik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangani aniqlandi. Vohada dehqonchilik va chorvachilikka oid marosimlarning aksariyati hosildorlikni oshirish, tabiiy ofatlarning oldini olish, mo‘l-ko‘lchilik va baraka tilash kabi maqsadlarni o‘zida mujassam etgan.

Shuningdek, ekin ekish, hosil yig‘ishtirish, xirmon ko‘tarish, chorvani yaylovga chiqarish va qishlovga tayyorlash bilan bog‘liq marosimlarda qadimiy e‘tiqodlar, islomiy qadriyatlar hamda mahalliy an‘analar o‘zaro uyg‘unlashgani kuzatildi. Tadqiqot davomida ayrim marosimlarning bugungi kunda ham saqlanib qolganligi, ayrimlarining esa zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta‘sirida o‘zgarib borayotgani aniqlandi.

Natijalar Surxon-Sherobod vohasi taqvimiy urf-odat va marosimlari nafaqat xo‘jalik faoliyatini tartibga soluvchi vosita, balki mahalliy aholining etnomadaniy xotirasi, qadriyatlari va an‘anaviy bilimlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim madaniy meros ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu marosimlarni ilmiy o‘rganish va saqlash hududning nomoddiy madaniy merosini asrash hamda etnografik tadqiqotlarni boyitishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

## **MUHOKAMA (DISCUSSION)**

Tadqiqot jarayonida respondentlar bilan olib borilgan suhbatlar asosida ikki turdagi Yulduz kalendarini yozib olishga muvaffaq bo‘ldik. Mavzuni A.Raximovdan

olingan kalendar «Zuhal yulduzi» deb ataladi. Yulduz oyini aniqlashda 24 kunni juda chuqur hisobga olish kerak. Yulduz yangi oyning uch kunlik ko‘rinishiga qarab boshqariladi. Shu uch kundan oyning birinchi kuni aniqlanadi. Agar oy uch kunlik bo‘lib, masalan, chorshanba kuni ko‘rinsa, demak, oyning birinchi kunini dushanba deb hisoblanadi. Shunga qarab oyni oxirigacha sanash mumkin. Har oyda uchta bir bor: 1, 11, 21- shu uch kunda Yulduz sharqda bo‘ladi. Uchta ikki bor: 2, 12, 22 - yulduz janubi-sharqda bo‘ladi. Uchta uch bor. 3, 13, 23-yulduz janubda bo‘ladi. Uchta to‘rt bor: 4, 14, 24-yulduz janubi-g‘arbda bo‘ladi. Uchta besh bor: 5, 15, 25 - yulduz g‘arbda bo‘ladi. Uchta olti bor: 6, 16, 26-Yulduz shimoli g‘arbda bo‘ladi. Uchta yetti bor: 7, 17, 27 - yulduz shimolda bo‘ladi. Uchta sakkiz bor: 8, 18, 28 - yulduz shimoli-sharqda bo‘ladi. Jami 24 kunni alohida hisobga olib yurish kerak. Yulduz har sakkiz kunda bir aylanadi. Bir oyda esa uch marta. Shu davrda Yulduzga qarama qarshi yurilmaydi. Aksincha unga orqa tomonga qarab yuriladi. Masalan, agar janub tomon ko‘chmoqchi yoki yurmoqchi bo‘lsa, yulduz shimol tomonda bo‘lishi kerak. Uchta to‘qqiz - 9, 19, 29 kunlari yulduz yerda bo‘ladi. Shu kunlari yulduz hech tomondan ko‘rinmaydi. Uchta o‘n – 10, 20, 30 kunlari esa, yulduz osmonda bo‘ladi. Ana shu olti kun ichida, ya’ni uchta to‘qqiz va uchta o‘nda odamlar bemalol istalgan tomoniga yo‘lga chiqishgan, ko‘chishgan va to‘ylar qilishgan. Yulduz oyining birinchi kuni sharq tomonda bo‘ladi. Ikkinchi va uchinchi aylanishida ham sharq tomonda bo‘ladi. Yulduzni aniqlash uchun grigorian kalendarida yaramaydi. Buning uchun faqat oy kalendaridan foydalanish lozim. Oy kalendarida har oyning boshi uch kunlik oy ko‘ringan chorshanba kuni kirs, o‘sha kundan boshlab yulduzni aniqlash boshlanadi.

Biron joyga ko‘chmoqchi bo‘lgan kishilar, masalan, janubga qarab yurmoqchi bo‘lganlar Yulduz kunlarini to‘g‘ri olmoqchi bo‘lsa, yuzini janubga qaratib, ikki qo‘lini yoniga ko‘tarib olishlari kerak. Gavdasi va boshini qimirlatmay, ko‘zi bilan o‘ng yoki chap tomonga qarashi lozim. Bunda qo‘lning orqa tomoni ko‘rinmasligi shart. Agar ko‘rinmasa yoki zo‘rg‘a ko‘rinsa ham, Yulduz to‘g‘ri hisoblangan bo‘ladi. Mabodo ko‘rinsa, demak o‘sha tomonga yurmaslik zarur. Ushbu Yulduz uning ikki qanotidan o‘tmasa, qilmoqchi bo‘lgan ishi to‘g‘ri tushadi. Agar Yulduzga qarama-qarshi yursa, zarari tegadi deb o‘ylashgan. Shu bois ko‘chmoqchi bo‘lgan odamning yurish kuni Yulduzga to‘g‘ri kelmasa, boradigan joyiga soliq sifatida uyidan biron belgi (kigiz, ko‘rpa, to‘shak, yosti) qo‘yib kelgan. Undan keyingina garchi Yulduz kunlari ko‘chish kuniga to‘g‘ri kelmasa ham, bemalol ko‘cha olgan<sup>1</sup>. B.Omonovdan yozib olingan kalendar «tug‘ol» deb ataladi. Bu kalendarida Ulkar (Hulkar), Tarozi, Jarqiroq va Qambar burjlari bor. Qambar burji chayonga o‘xshab turadi va doimo

<sup>1</sup> Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i, 2014 yil.

osmonda turadi. Ulkar-21 iyundan 21 iyulga qadar ko‘rinadi va 9 ta Yulduzlar turkumidan iborat bo‘ladi. Tarozi - osmondagi taroziga o‘xshash 3 ta Yulduzdan tarkib topib, 21 iyuldan 21 avgustga qadar osmonda ko‘rinadi. Jarqiroq-bitta yorqin Yulduz bo‘lib, 21 avgustdan 21 sentyabrga qadar ko‘rinib turadi. Qambar bilan oy bir-biriga yaqinlashgan payt «tug‘ol» deyiladi. Bu holat har oy davom etib, 2,5-3 kunning o‘z ichiga oladi. Tug‘ol yanvardagi 23 sanadan boshlanadi va oyiga 2 kundan qisqarib boradi. Ushbu kalendar oy chiqishidan boshlanadi va oy yo‘nalishi bo‘yicha yuriladi. Mabodo biron joyga chiqmoqchi bo‘lishsa, boshqa yo‘nalishdan yurib, belgilangan manzilga yetib olishadi. Biroq tug‘ol kunlari boshqa joyga ko‘chilmaydi, kelin olinmaydi. Tug‘ol yashin tezligida o‘tishi mumkin deb sanaladi<sup>2</sup>. Ushbu marosimlar hozirgi vaqtda kundalik hayotdan chiqib ketgan bo‘lsada, qisman urf odat va an‘analarni yaxshi bilgan rahbarlar amalga oshirmoqda. Bu an‘analar tabiat va inson bilan bog‘liq noma‘lum sirlarni o‘zaro uyg‘unlashishi bo‘lib, dehqonchilik boshlanishdan oldin amalga oshirilgan an‘analar, unga amal qilganlarga fayz baraka, obro‘-e‘tibor keltirganligini hayot isbotlab kelmoqda. Surxon vohasida Navro‘zning kirib kelishi bilan bahorgi ishlar oldindan dala yaqinida “xudoyi” qilinib, marosimga keksa dehqonlar, oqsoqollar rahbarlik qilib, har bir xonadondan bug‘doy, oziq-ovqat mahsulotlari ma‘lum miqdorda mablag‘ to‘planib, bozordan buzoq yoki qo‘y sotib olinib, qurbonlik qilingan. Taom tayyor bo‘lguncha qishloq erkaklari ariqlarni tozalangan. Bahorgi shudgor, ekin oldidan “is chiqarish” marosimida har bir oila ayollari bo‘g‘irsoq, qatlama qilib, marhumlarning ruhlarini shod qilgan, dehqonlar ishining omadli bo‘lishini so‘ragan.

Navro‘zda dehqonlar bahorgi haydov oldidan xo‘kizlarni shoxlari va bo‘yinturug‘ini yog‘ bilan moylab, xo‘kizlarni yomon ko‘zdan asrash, uchun “is yog‘i” o‘tkazib, xo‘kizlar shoxiga maxsus tumorlar taqishgan. Bu udumlar “shox-moyi”lar marosim deb, Hazrati Odamning haqiga atalgan. Eng muhimi dehqonchilikka bag‘ishlangan hamma marosimlarni boshqarish keksa yoshli, bola-chaqasi, nevara-chevarasi ko‘p piru badavlat, ishi doim oldinga ketadigan tadbirkor, obro‘li kishi rahbarlik qilib, birinchi qo‘shni haydab bergan. Ushbu Navro‘z marosimida dehqonlar yangi liboslar kiyib, to‘kin sochinlik va shodu xurramlik bilan o‘tkazib, bu kunda odamlar yolg‘on gapirmasligi, bir-birini haqorat qilmasligi, qo‘pol so‘zlar ishlatmasligi, nopok holda dasturxon yoniga kelmasligi talab qilingan. Chunki aytilgan qo‘pol so‘z, haqorat qilish, nopok kelish, bir yillik dehqonchilikka zarar qilib, baraka ketadi, rizq-nasibamiz mo‘l bo‘lmaydi, hosil past bo‘ladi degan fikrda bo‘lishgan. Shuning uchun “Qo‘sh chiqarish”, “Shoh moylar”, “Qo‘sh oshi” marosimlari shodu-xurramlik bayram bo‘lib, unga amal qilmaganlar el nazaridan

<sup>2</sup> Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Qizilolma qishlog‘i, 2022 yil.

qolib, bir umr kosasi oqarmay, xor-zor yashaganlar. Qanchalik mehnat qilmasin, ishining barakasi bo'lmagan. Dehqonlar yerga dastlabki urug'ni sochishdan avval duoi fotiha qilib, dam solib undan keyin bo'lg'usi hosil urug'ini yerga sochgan. Vohada dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina qadimiy marosimlar borki, ular o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Voha aholisi Bobodehqon va u bilan bog'liq urf-odatlariga qat'iy amal qilingan hamda uning ruhiy quvvat berishiga ishonganlar. Shu boisdan voha aholisi ekin ekayotganda Bobodehqon barakasini bersin deb xudoyi qilishgan.

Vohada dastlab ekin ekishdan avval ariqlar qazilib, loyqalardan tozalanadi. Shu vaqtda dehqonchilik marosimlaridan biri «Loy tutish» marosimi o'tkaziladi. Ariq qaziyotgan odamlar oldidan biror yo'lovchi o'tib qolsa, o'tayotgan yo'lovchiga ariq qaziyotgan odamlardan bittasi bel yoki ketmonda loy tutadi. Yo'lovchi tutilgan loyni uzatilgan asbobi bilan birga olishi, shu jarayonda yo'lovchi o'zining biror hunarini ko'rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi mumkin. Xususan, baxshi dostonidan terma kuylashi, hofiz qo'shiq aytishi, polvon kurashga tushishi, hunarmand esa ariq qazuvchilarning asboblarini ta'mirlashi lozim. Agarda bu holatdan chiqib keta olmasa, ariq qazuvchilarni mehmon qilishi yoki bo'lmasa ular tomonidan ko'rsatilgan ariqni tozalab berishi lozim.

Ekin ekishning ilk kuni dalaga qo'sh chiqarish paytida «Shoxmoylar» udumi o'tkazilgan. Dehqonchilikka aloqador marosimlarning deyarli barchasiga mazkur udum yo'l ochib beradi, bu marosimga qishloq ahlining barchasi ishtirok etgan. «Shoxmoylar» udumi erta bahorda, asosan, Navro'z kunlari o'tkazilgan. Odatda qishloq ahli o'z imkoniyatidan kelib chiqib, marosimga har xil taomlar tayyorlashgan. Marosim o'tkaziladigan joyda qishloq ahli tomonidan pishirib kelingan taomlar tanavvul qilingan. Shundan keyin yoshi ulug', badavlat kishi tomonidan bu yilgi dehqonchilikka Allohdan qut-baraka so'rab, duo qilingan. Hatto o'tgan yilgi bug'doydan qilingan non bo'laklarga bo'linib, marosim ishtirokchilariga tarqatilgan, bir bo'lagi qo'shga qo'shilgan ho'kizga berilgan. Ho'kizlarning baquvvat bo'lishi uchun ularning shoxiga zig'ir moyi surtilgan, yomon ko'zdan, ins-jinsdan asrasin deb, isiriq ham tutatilgan. Shu kishi tomonidan dastlabki qo'sh solinib, toq sonida imkoniyatiga qarab, uch, besh yoki yetti marta qo'sh haydagan. So'ngra o'tgan yilgi hosilning oxiri tutamidan olingan bug'doydan qo'sh bilan haydalgan yerga bir necha hovuch sepilgan. Shu bilan bahorgi ekin-tekin ishlari boshlanib ketgan.

Qadimdan saqlanib kelgan dehqonchilik marosimlaridan biri «Sust xotin» marosimidir. Bu marosim, asosan, yil qurg'oqchilik kelgan yillarida lalmi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan hududlarda o'tkazilgan. Qishloqdan o'n-o'n besh kishi odam shaklida qo'g'irchoq yasab, qo'g'irchoqqa yoshi kekxa ayolning

ko‘ylagini kiydirib, ko‘chalarni aylangan. Qolganlari esa «Sust xotin» qo‘shig‘ini aytishgan, ertasi kuni esa yig‘ilgan xayr-ehsonlardan qishloqning bir chekka joyida osh qilinib, xalqqa berilgan. «Sust xotin» marosimi yakunidagi qo‘g‘irchoqni kuydirib yuborish yoki eski quduqqa tashlash udumi uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimizning qurbonlik qilish marosimining qoldiqlaridan biridir.

Vohada dehqonchilikda yetishtirilgan hosilni yig‘ib-terib olishdan oldin «Xayrixudoyi» marosimi o‘tkaziladi. Bu marosimda mo‘l ko‘l hosilni eson-omon yig‘ishtirib olishni niyat qilib, xudoyi qilinadi. Qadimiy dehqonchilik marosimlaridan yana biri «Oblo baraka» marosimidir. Hasharchilar bug‘doy o‘rimining so‘ngida bir parcha o‘rilmagan yerni har tomondan o‘rab, asta o‘rib kelaveradilar. Bunday paytda har bir o‘roqchi oxirgi tutam bug‘doyni o‘rab olishga harakat qiladi. Oxirgi tutam bug‘doy esa «Ona bug‘doy» deb yuritiladi, qaysi bir o‘roqchi ana shu tutamga yetib olsa, «ettim-ettim, oblo baraka bersin» deb uni o‘rib oladi<sup>3</sup>.

Vohaning Boysun tumanining tog‘ qishloqlarida yulduzlar harakatiga asoslangan holda yil fasllarni ham burjlarga bo‘lishgan. Bular: burji obiy (bahor), burji noriy (yoz), burji bodiy (kuz), burji hokiy (qish)<sup>4</sup>. Dala kuzatishlari asosida shuni aniqladikki, dehqon va chorvadorlar yulduzlarning shakliga qarab nomlashgan, ularning qaysi paytda chiqishiga qarab tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlashgan<sup>5</sup>.

Chorvadorlar uchun ob-havoni, vaqtni va o‘zlarining yuradigan yo‘nalishini oldindan bilish muhim hisoblangan. Buning uchun ular quyosh, oy, yulduzlar, fasllar almashinuvi, o‘zlari yashab turgan joyning holatini, hayvonlarning harakatini va mavsumiy qushlarning uchib kelishi va ketishini sinchkovlik bilan kuzatganlar. Uzoq yillik kuzatishlar natijasida chorvadorlar “chorva hisobi” ni ishlab chiqishgan<sup>6</sup>.

Chorvadorlar uchun Oy bilan Hulkar yulduzi harakat yo‘nalishi o‘rtasidagi tutashuvchi manzillar ya‘ni, “do‘g‘il, to‘g‘ul yoki to‘qush hisobi” muhim hisoblangan. Bundan tashqari, chorvador aholi tomonidan “chorva hisobi”, “to‘qson hisobi”, “chilla hisobi”, “qantar og‘di”, “muchal hisobi” kabi an‘anaviy taqvimlar yaratilgan<sup>7</sup>.

Vohaning chorvador aholisi Hulkar yulduzini holatini kuzatib, yilning qanday kelishini bilishgan. Hulkar yulduzi yozning 22-iyunidan boshlab ko‘rinib, 22-martgacha osmonda ko‘ringan. Chorvadorlar orasida “Hulkar uydan ko‘rinsa uch oy to‘liq qishing bor, jotorda jonboshga kelsa, joz bo‘lmay nesi qoldi”<sup>8</sup> degan naql keng

<sup>3</sup> Bo‘riyev O. Navro‘z tarixidan lavhalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1990. –B. 64.

<sup>4</sup> Narziqulov A. Dehqon taqvimi. - B. 13-61.

<sup>5</sup> Dala yozuvlari. Qumqo‘rg‘on tumani Yangiyer qishlog‘i. 2020-yil.

<sup>6</sup> Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2011. – B 45.

<sup>7</sup> Tursunov S, Pardayev T. Surxondaryo etnografiyasi. – Termiz, 2014. – B. 38.

<sup>8</sup> Dala yozuvlari, Boysun tumani Padang qishlog‘i, 2020 yil.

tarqalgan. Ya'ni, cho'ponlar o'tovining tuynugidan Hulkar ko'rinsa demak, hali qish cho'ziladi, yonboshda ko'rinsa, demakki, issiq kunlar yaqin deb hisoblagan.

Chorvadorlar Hulkar yulduziga qarab "to'g'ol hisobi"ni ham hisob-kitobini qilishgan. Voha aholisi orasida Oy hisobining "To'g'ol", "To'g'ish" yil hisobi mavjud bo'lganligi dala tadqiqotlarida aniqlandi<sup>9</sup>. Dala tadqiqotlarida yozib olingan ma'lumotlarga ko'ra, chorvadorlar hisobi bo'yicha to'g'ol bir yilda, har 28 kun atrofida kuzatilib, rosa 13 marotaba sodir bo'lgan. "To'g'ul hisob" tizimi o'zining soddaligi, xotirada oson saqlab qolinishi sababli oddiy xalq orasida kengroq tarqalgan. Vohaning ko'pgina hududlari aholi orasida "To'qqiz to'g'olda to'qli to'yadi" (mart oyi), "Jetti to'g'olda jetalagan ot to'yadi" (aprel), "Besh to'g'olda beshikdagi bola to'yadi" (may), "Hulkar bilan tarozi ot choptirim orosi", "Tarozi tuvsu tong sovur, sunbula tuvsu suv sovur", -degan maqollar uchraydi<sup>10</sup>.

Bu to'g'risidagi ma'lumotlarni etnolog A.Sarimsoqov tadqiqotlarida ham ko'rib o'tilgan<sup>11</sup>. F.Toshboyev tadqiqotlarida "Agar burgut oy atrofida aylansa bo'ron bo'ladi, shoxangni tayyorla, quyosh atrofida aylansa qor yog'adi, kuragingni tayyorla"<sup>12</sup>, -degan naql hozirgacha saqlanib qolganligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, voha aholisi oy fazalarini kuzatish mobaynida to'plagan boy tajribalari asosida o'zlarining kundalik turmushini yuritgan. Qadimgi chorvadorlarning astronomik kuzatishlarini o'zida jamlagan "to'g'ul" hisobi vohaning chorvador aholisi orasida ham keng qo'llanilgan.

Voha chorvadorlar chorvani qishdan betalafot olib chiqish uchun katta bilim, mashaqqatli mehnat va tajriba talab qilingan. Vohada chorvadorlar "Qantar og'di"ni qish chillasining chiqishi, deb hisoblab chorvani ko'klamgi yaylovga chiqishiga hozirlik ko'rish ishlarini boshlab yuborgan. Qish chillasi tugab, yerga "cho'g'" tushganidan keyin ya'ni yer qiziy boshlagandan keyin ular chorvani qo'ra atrofidagi va unga yaqin yaylovlarda boqishgan. Bunday paytda Qantar oqqandan keyin yoqqan qorlar ham tezda erib ketgan. Yerdan bug' ko'tarilishi bilan o'tlarning ham o'sishi tezlashgan. Shuning uchun ham bu paytni cho'ponlar: "Qantar og'di"- endi qish ham qo'rqinchli emas, qishning qishligi qolmadi, qishning bahorga qarab og'ishi endi xavotirli emas", -deb tushunishgan. Vohaning chorvadorlari "Qantar og'sa qoziq ustida qor turmas", "Qantar og'di-qalt etdi, boyning ko'zi jold etdi", -degan maqolalarni ko'p ishlatishgan<sup>13</sup>.

<sup>9</sup> Dala yozuvlari, Muzrabod tumani Qo'shmon qishlog'i, 2022 yil.

<sup>10</sup> Dala yozuvlari, Angor tumani Kayron qishlog'i, 2020 yil.

<sup>11</sup> Sarimsoqov A. O'zbeklarning kalendar marosimlari. (Farg'on vodiysi materiallari asosida). tarix.fan.nomz. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010. – B 52.

<sup>12</sup> Toshboev F. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. – Toshkent, 2014. – B 36.

<sup>13</sup> Dala yozuvlari, Boysun tumani Tillakamar qishlog'i. 2018-yil.

Ammo, ba'zi yillari qishning boshi iliq kelib, oxiri qattiq qishga aylanib ketgan. Bunday qiyin davr cho'ponlarni ancha sinovdan o'tkazgan. Erta ko'klamda, ya'ni fevraldan to mart oyining o'rtalarigacha davom etgan bu mashaqqatli davr "Qoraqilding" deb atalgan. Shuning uchun ham chorvador orasida "Qoraqilding xor qildi, sut qatiqqa zor qildi", "Yaxshi kelsa hut, qozon-qozon sut, yomon kelsa hut serrayib yotgan put",-degan maqol bejizga tarqalmagan. Yoki bo'lmasa, "Yaxshi kelsa hutni ko'ring, xurmo-xurmo sutni ko'ring, yomon kelsa hutni ko'ring, serrayib yotgan putni ko'ring", "Hutman, yomon kelsam-oriq molga yutman" yoki "Yomon kelsa hut-keraga to'la put" kabi maqollar hozirgacha xalq orasida keng ishlatiladi<sup>14</sup>.

Voha aholisi "Qantar og'di", "Qoraqilding" davrini Hulkar yulduziga qarab bilgan bo'lsalar, qishning qanday kelishini ba'zi chorvadorlar "Moyiqi" deb atalgan kundalikdan ham keng foydalangan.

Voha aholisi qishning qanday kelishini Denov tumani Chorvador qishlog'ida yashovchi hisobdon Chori bobo Boysariyevdan "Moyiqi" deb atalgan kundalikdan foydalanishgan. Chori boboning aytishicha u kishi noyabr oyining boshlarida Moyiqini yassi sopol idishga suv quyib, suvning muzlagan va muzlamagan kunlarini daftarga belgilab ketavergan. Ushbu kuzatish jarayoni kamida besh yilni tashkil qilgan. Chori bobo bu tajribasini har yili 7-noyabrdan boshlaydi. Suvning qalinligini 1-1,5 sm. qilib kechqurun, ochiq havoga qo'yiladi. Ertalab idishdagi suv muzlamagan bo'lsa, demak qishning birinchi oyi yaxshi keladi. Bordi-yu suv muzlagan bo'lsa, qish dekabrdan boshlanadi. Ikkinchi kuni, ya'ni 8-noyabrda ham idishdagi suv muzlamasa, yanvar oyi issiq bo'ladi, agar muzlasa yanvar, ya'ni ikkinchi oyda qish qattiq bo'ladi. Uchinchi kuni, ya'ni 9-noyabrda idishdagi suvning muzlash va muzlamasligiga qarab fevral oyining sovuq yoki iliq bo'lishligi aniqlangan. Bu hisob ancha to'g'ri hisob bo'lib, qishloqning cho'ponlari chorvani yaylovga haydashdan oldin albatta, Chori boboning maslahatini olishgan<sup>15</sup>.

Inson tabiatning bir bo'lagi sifatida tabiatdagi o'zgarishlar bilan hamohang yashaydi. Shu asosda o'zining uzoq davri tajribalariga tayanib, yillar hisobini inson umrining hisobini ham ishlab chiqadi. Surxon – Sherobod vohasida ham inson umr manzillari bilan bog'liq hisoblardan biri muchal hisobi sanaladi. Aslida muchal hisobi bizga ta'sir etmay qolmaydi.

Mashhur Xitoyshunos olim Eduar Shavan "Le Cycle turc des Douze Animaux" asarida "ko'pgina xalqlar keng qo'llaydigan o'n ikki hayvonlik taqvim qadimgi turkiylarga oid yil hisobi bo'lgan, uni xitoylar turklardan o'zlashtirgan" degan ilmiy xulosaga keladi. Olim taqvim ustida izlanish olib borarkan, uning yaratuvchilari –

<sup>14</sup> Dala yozuvlari, Boysun tumani Munchoq qishlog'i, 2020-yil.

<sup>15</sup> Dala yozuvlari, Denov tumani Chorvador qishlog'i, 2022-yil.

turkiylarning ibtidoiy tafakkuri bilan bogʻliq koʻplab unsurlarni sanaydi. Eduar Shavanning aniqlashicha, oʻn ikki hayvonlik taqvim Xitoy shimolidagi turk qabilalari orasida miloddan avvalgi V asrda paydo boʻlgan va miloddan avvalgi II – I asrlarda Xitoyga yoyilgan<sup>16</sup>.

Muchal hisobi boshqa madaniyatlar bilan chatishi natijasida baʼzi oʻzgarishlarga uchragan. Maʼlum bir madaniyatning oʻziga xos ijtimoiy – tarixiy va tabiiy – geografik sharoitidan kelib chiqib, yillarning xususiyatlari bir – biridan farqlanadi. Masalan, Oltoy qozoqlari sigir yili yaxshi kelishiga, qorachoylar esa yomon yil ekanligiga ishonishadi.

Markaziy Osiyoning tabiiy sharoiti ham muchal hisobini qoʻllashga sabab boʻlgan. Chunki, koʻchmanchi xalqlar turmush tarzining chorvachilik bilan bogʻliqligi uchun ushbu sohaning istiqbolini belgilash, keskin kontinental iqlim sharoitida uzoq muddatli iqlim bashoratini ishlab chiqish zarurati bunda asosiy omil boʻlgan.

Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” da yozishicha, turkiylar muchal yillarining har birida nedir hikmat bor deb oʻylaganlar. Masalan, sigir yilida urush koʻpayarmish, chunki hoʻkizlar bir – biri bilan koʻp shoxlashadi. Bu yilda yomgʻir – qor koʻp yogʻadi. Qish uzun keladi. Tovuq yilida ovqat koʻp boʻladi. Chunki tovuqning yemishi dondir, tovuq donni topish uchun yer titadi. Timsoh (nahang) yili kirganida koʻp yomgʻir yogʻadi. Chunki timsoh suvda yashaydi<sup>17</sup>.

Oʻn ikki hayvon nomi bilan ataladigan turkiy taqvim yil va muchal hisobi boʻyicha Shamsiy kalendar hisoblanadi. Ammo, oylar qamariy hisob bilan yuritiladi, bunga koʻra bir oy 29 – 30 kunga teng. Natijada bir muchalda esa 148 – 149 qamariy oy bor. 12 qamariy oy 354 kun boʻlib, Shamsiy yildan 11 kun kam boʻladi. Shu sababli ham har uch yildan soʻng oʻn uchinchi oy ham qoʻshilgan. Shu asosda muchal hisobi qamariy – Shamsiy taqvimlar guruhiga kiradi. Koʻpgina manbalarda taʼkidlanishicha, turkiy qavmlar VIII asrdan boshlab toʻliq Shamsiy yil hisobiga oʻtgan.

Muchal hisobi 12 hayvon nomiga qoʻyilgan boʻlib, muchal soʻzining maʼnosi, yaʼni mucha – qism degan maʼnoni beradi. Insonning umrini 60 yil deb belgilasa shu davrning bir muchal beshdan bir qismini tashkil etadi. Bir davrning 100 yil emas, 60 yil qilib olinishida ham hikmat bor. Chunki, odatda, bir inson umri taxminan 60 yilga teng va bu “Inson asri” deb yuritiladi<sup>18</sup>.

<sup>16</sup> Jabbarov F. “Maʼnaviy hayot” jurnali, 2023 yil 1 – son. - B 13.

<sup>17</sup> Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk”. Toshkent: Meros, 1989. – B 128.

<sup>18</sup> Jabbarov F. “Maʼnaviy hayot” jurnali, 2023-yil 1 – son. - B 13.

Masalan, odam bir muchal yoshigacha – bola, ikkinchi muchal payti (13-14) – o‘smir, uchinchi muchalda (25 – 36 yosh) yigit va to‘rtinchi muchalda (37 – 48 yosh) o‘rta yashar, beshinchi muchal – 49 – 60 yoshda esa keksa bo‘ladi.

Shuning uchun ham har muchalda odam yangi maqomga ko‘tarilgan, uning ijtimoiy roli oshgan, jamiyatdagi munosabatlarda ham unga nisbatan muomala shakli o‘zgargan. Masalan, turkiylarda er kishi uchinchi muchalga o‘tganda “qora soqol”, to‘rtinchi muchalga o‘tganda “ko‘k soqol”, beshinchi muchalga o‘tganda “oqsoqol” deb atalishi bejiz emas.

Surxon-Sherobod vohasi aholisi ham inson umrini hisob-kitobli qilayotganda muchal hisobiga asoslanadi, ya’ni biror odamning yoshini aniqlashda uning qaysi muchalda tug‘ilganligi bilan bog‘liq hisobga har 12 yilni qo‘shib hisoblab insonning yoshi chiqariladi. Muchal yili hisobiga ko‘ra vohada ham Navro‘z kirishi bilan yangi muchal boshlanadi. Muchal hisobi halol va harom yillarga bo‘linadi. Masalan, sichqon, yo‘lbars, ilon, to‘ng‘iz, maymun, it yillari harom hisoblanadi. Sigir, quyon, ot, baliq, qo‘y, tovuq yillari halol sanaladi<sup>19</sup>.

Voha aholisi orasida inson umrini sarhisob qilish bilan bog‘liq yana bir hisob-kitob bo‘lib, ayrim odamlar o‘zining umrining 84 yoshda ming oyligini ham nishonlashadi<sup>20</sup>.

Voha chorvadolari ham o‘z pirlari va homiylariga ega bo‘lib, jumladan, qoramollar piri sifatida Zangiota, ya’ni Bobozangi (yirik mutasavvuf avliyo Oyxo‘ja ibn Toshxo‘ja) mayda mollarning piri Cho‘ponota, Ot va chavandozlar piri Qambarota yoki Bibiqambar, tuyakashlar homiysi Vosil Qora, Eshakning piri Xorxor ota kabi homiylar ilohiylashtirilgan va bularga bag‘ishlab vaqti-vaqti bilan is qilingan, obro‘ chiqarilgan. Mollarni yaylovga chiqarish yoki qishlovga qaytish oldidan kun o‘nglovchilar xosiyatli yoki bexosiyat kunlarni Yulduzlar joylashuviga qarab aniqlab, xosiyatli kunlarda ko‘chilgan va ko‘chishdan avval homiy pirlar haqqiga is qilingan. Agar kun chap kelib ko‘chish imkoni bo‘lmay qolsa, ular o‘z narsalaridan biror narsani ulgi qilib masalan, o‘tov yoki bo‘xchani ko‘chuvchilardan berib yuborgan. Bu odat soliq soluv deb atalgan. Keyin kun o‘nglanmasdan ham ko‘chilavergan, chunki o‘ng kunda, ya’ni xosiyatli kunda, ko‘chuvchi soliq chiqarib qo‘ygan bo‘lgan. Biroq bexosiyat ko‘chish bilan bog‘liq baxtsizlikning oldini olish uchun, albatta, is qilingan.

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Surxon vohasi aholisi xo‘jalikning turli sohalarini bilan shug‘ullanar ekan, albatta muayyan marosimlarni bajarishgan. Marosimlarni o‘tkazar ekan, odamlar yil yaxshi

<sup>19</sup> Dala yozuvlari, Sherobod tumani G‘ambur qishlog‘i, 2020-yil.

<sup>20</sup> Dala yozuvlari, Sherobod tumani Gegirdak va Navboq qishloqlari, 2020-yil.

kelishini, hosil ko'p bo'lishini, ofat va kulfatlardan saqlanishini, ishiga baraka kelishidan umidvor bo'lishgan. Bu odat va an'analar ma'lum bir o'zgarishlar bilan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Voha aholisining xo'jalik faoliyatidan kelib chiqqan holda taqvimlar bir-biridan farq qilgan, ya'ni yil hisobi dehqon va chorvador hisoblariga bo'lingan.

Xo'jalik faoliyati davomida aholi yil fasllarining almashishini qishgi va yozgi chillarga bo'lgan qolaversa quyoshning burjlar bo'ylab harakatiga asoslanib xo'jalik faoliyatini olib borgan.

Aholining yil fasllari bilan va tabiat hodisalari bilan bog'liq magik tasavvurlari asosida mavsumiy marosimlar shakllangan va ushbu marosimlar fasllar almashinuvi jarayonida belgilangan retual asosida o'tkazilib borilgan.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Bo'riyev O. Navro'z tarixidan lavhalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. –B. 64.
2. Jabbarov F. “Ma'naviy hayot” jurnali, 2023 yil 1 – son. - B 13.
3. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”. Toshkent: Meros, 1989. – B 128.
4. Narziqulov A. Dehqon taqvimi. - B. 13-61.
5. Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2011. – B 45.
6. Sarimsoqov A. O'zbeklarning kalendar marosimlari. (Farg'on vodiysi materiallari asosida). tarix.fan.nomz. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010. – B 52.
7. Toshboev F. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati.– Toshkent, 2014. – B 36.
8. Tursunov S, Pardayev T. Surxondaryo etnografiyasi. – Termiz, 2014. – B. 38.
9. Dala yozuvlari, Boysun tumani Tillakamar qishlog'i. 2018-yil.
10. Dala yozuvlari, Boysun tumani Padang qishlog'i, 2020 yil.
11. Dala yozuvlari, Boysun tumani Munchoq qishlog'i, 2020-yil.
12. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog'i, 2014 yil.
13. Dala yozuvlari, Sherobod tumani G'ambur qishlog'i, 2020-yil.
14. Dala yozuvlari, Sherobod tumani Gegirdak va Navboq qishloqlari, 2020-yil.
15. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Qizilolma qishlog'i, 2022 yil.
16. Dala yozuvlari, Angor tumani Kayron qishlog'i, 2020 yil.
17. Dala yozuvlari, Muzrabod tumani Qo'shmon qishlog'i, 2022 yil.
18. Dala yozuvlari. Qumqo'rg'on tumani Yangiyer qishlog'i. 2020-yil.
19. Dala yozuvlari, Denov tumani Chorvador qishlog'i, 2022-yil.